



MAHSULOTLAR MUVOFIQLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI

ECONOMIC AND LEGAL FOUNDATIONS OF PRODUCT CONFORMITY ASSESSMENT

¹**Zakirov Ansabxon Akaidinovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida qo'llaniladigan milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar hamda iqtisodiy mexanizmlar o'rganilib, ularning milliy bozorni xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlashdagi o'rni hamda xalqaro savdodagi raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, ushbu sohani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Eng. - In this article, the national and international legal norms as well as economic mechanisms applied in the process of product conformity assessment are examined. Their role in ensuring the supply of safe products to the domestic market and their importance in enhancing competitiveness in international trade are highlighted. In addition, recommendations for the further improvement of this field are developed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *mahsulot, mahsulotlar muvofiqligi, sertifikat, deklaratsyalash, xalqaro savdo, ILAC, IAF.*
❖ *product, product conformity, certificate, declaration, international trade, ILAC, IAF.*

Kirish.

Hozirgi kunda xalqaro savdo munosabatlarida iste'molchilar talabiga mos keladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish ularning xalqaro darajadagi muvofiqligini ta'minlashni talab qiladi. Buning uchun mahsulotlar muvofiqlikni baholashning ruxsat etiladigan tartib-taomillaridan o'tishi, ya'ni xalqaro standartlarga javob berishi zarur. Mahsulotlar muvofiqligini baholashdan o'tkazilganligi eksport jarayonlarida texnik to'siqlar kuzatilmasligiga, ortiqcha byurokratik kechikishlar va xarajatlarning kamayishiga hamda ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozor imkoniyatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarning muvofiqligini baholash jarayonlari mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, 2023-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonun sohada yagona yondashuv va standartlarni belgilash orqali tartibga solishni ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41-son Farmoni texnik jihatdan tartibga solish tizimida davlat boshqaruvini yanada kuchaytirish, xalqaro standartlarga integratsiyani jadallashtirish va muvofiqlikni baholash organlarining faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan.

Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy

izlanishlar so'nggi yillarda sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Bunday tadqiqotlarning dolzarbligi, avvalo, jahon bozorida sifat mezonlari va xalqaro standartlarga muvofiqlik talablari tobora kuchayib borayotgani bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, mahsulotlarning xalqaro darajada muvofiqligini ta'minlash, ularning sifatini oshirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

ISO 3534-2:2006 standartida ta'kidlanishicha, mahsulot muvofiqligini baholash jarayonida tanlanadigan tasodifiy namuna shunday shakllantirilishi lozimki, unda qayd etilgan kuzatuv natijalari butun to'plam tarkibidagi qiymatlar bilan bir xil taqsimot xususiyatlariga ega bo'lishi lozim [3]. Boshqacha qilib aytganda, namuna umumiy to'plamning statistik jihatdan asosiy o'lchov belgisi sifatida qo'llanilishi talab etiladi, bu esa baholash natijalarining ishonchliligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

F. Cordeiro va M. Ramseyning fikriga ko'ra, mahsulotlar muvofiqligini baholashda to'g'ri tashkil etilgan namuna olish jarayoni o'lchov natijalarining ma'lum bir noaniqlik darajasi bilan birga taqdim etilishini ta'minlaydi hamda ularni maqsadga muvofiq foydalanishga imkon yaratadi [4]. Shu tariqa, tegishli tarzda tanlangan namuna o'z vazifasini to'laqonli bajarishi uchun yetarlicha vakillikka ega bo'ladi.

P. Rostron va T. Fearnning fikriga ko'ra, mahsulotlar muvofiqligini baholashning o'lchov noaniqligi bo'yicha keltirilgan natijalar uning haqiqiy qiymatini ifodalamaydi, biroq haqiqiy qiymat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ishonch oralig'ini aniqlash imkonini beradi [5]. Bu yondashuv mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki iste'molchi xavfsizligi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha qarorlar faqat

aniqlangan qiymatlar emas, balki ular bilan bog'liq noaniqliklarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shunday ekan, o'lchov noaniqligining ishonch oralig'ini aniqlash mahsulotning standartlarga muvofiqligini baholashda xavflarni kamaytiradi va qaror qabul qilishning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Alex W. va Bertil M. ta'kidlashicha, "mos namuna" tushunchasi mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki namunadan kelib chiqadigan noaniqlikni e'tibordan chetda qoldirish, ko'pincha, umumiy o'lchov noaniqligining ishonchli bahosiga asoslangan qaror qabul qilish qoidalarini izdan chiqarishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, mahsulotning belgilangan talab va standartlarga muvofiqligini baholash natijalarining haqqoniyligi va ishonchliligiga jiddiy xavf tug'diradi [6]. Shu bois, na'muna asosida mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida kelib chiqadigan noaniqlikni hisobga olish dolzarb hisoblanadi.

R. Houe va B. Grabot fikriga ko'ra, ekologik yorliqlar mahsulotning atrof-muhitga ta'siri pastligini tasdiqlovchi ko'rsatkich sifatida raqobat ustunligini berishi mumkin, chunki ular faqat ixtiyoriy asosda olinadi. Bunday yorliqni olish uchun mahsulotni insonlar oson tushunadigan ifodalar orqali bayon qilingan qoidalarga muvofiq tahlil qilish talab etiladi. Ammo bu qoidalarini talqin qilish ham, ayniqsa mahsulot murakkab bo'lganda, amalda qo'llash qiyin bo'lishi mumkin. Shuningdek, ekologik yorliqlar ko'pincha ma'lum davlatlar yoki geografik hududlarga xos bo'ladi [7]. Fikrimizcha, mahsulotni bir nechta davlatlarda eksport qilish uchun turli yorliqlarga muvofiqligini tekshirish zarur bo'ladi hamda turli ekologik yorliqlarni olish jarayonida qimmat va qisman takrorlanuvchi tahlillar o'tkazilishi talab qilinadi.

R. Liepiņa, I. Lapiņa va J. Mazaisning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, muvofiqlikni baholash jarayoni ma'lum bir


mahsulot yoki mahsulotlar guruhiga ularning xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtiriladi. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish uchun mahsulotga va baholash jarayoniga qo'yiladigan aniq talablar mavjud bo'lishi zarur. Ushbu talablar majmuasi "muvofiqlikni baholash sxemasi" deb yuritiladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda mahsulotlar muvofiqligini baholashning iqtisodiy-huquqiy asoslari tizimli va qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganildi. Ilmiy izlanishda normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar va milliy me'yoriy bazalar mazmunan tahlil qilindi. Shu bilan birga, ILAC va IAF kabi xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining hujjatlari qiyosiy o'rganilib, ularning milliy tizimga ta'siri baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayoni moliyaviy jihatdan xarajatlarni talab qiladi. Ushbu xarajatlar asosan sertifikatlash, laboratoriya sinovlari, hujjatlashtirish va xalqaro talablarga moslashishga yo'naltiriladi. Mamlakatimizda mahsulotlarning muvofiqligini baholash O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41-son Farmoni asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari [1]

Texnik reglamentlar muayyan soha yoki sanoatda belgilangan standartlarning barcha hududlarda, korxonalarda va tashkilotlarda yagona talablarga muvofiq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular mahsulot sifatini va xavfsizligini kafolatlash, savdo to'siqlarini kamaytirish hamda nazorat va muvofiqlik jarayonlarini soddalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talablarning joriy etilishi ishlab chiqaruvchi va

xizmat ko'rsatuvchilarning xalqaro hamda ichki bozorlarda erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi, tartibga soluvchi organlar va sertifikatlovchi tashkilotlar uchun baholash jarayonlarida izchillik yaratadi.

Texnik jihatdan tartibga solish va muvofiqlikni baholashning birligi standartlar va tartib-taomillarning barcha sohalarda yagona tamoyillar asosida qo'llanishini anglatadi. Bu jarayon mahsulot va

xizmatlarning sifati va xavfsizligini turli hududlarda bir xil mezonlar asosida baholash imkonini beradi hamda ichki va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytiradi. Davlat organlari tomonidan shaffof va tushunarli tartibga solish choralarning joriy etilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishonchli axborot bilan ta'minlanishiga, amaliyotda yagona yondashuvni qo'llashga va tadbirkorlik muhitida barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, texnik reglamentlarning barcha tadbirkorlarga teng qo'llanishi insofsiz raqobat va kamsitilishga yo'l qo'ymasdan adolatli bozor muhitini shakllantiradi, investitsion jozibadorlikni oshiradi hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Texnik jihatdan tartibga solishning iqtisodiy rivojlanish, moddiy-texnika bazasi hamda ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga muvofiqligini ta'minlash va sohaga oid rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mazkur sohani xalqaro va mintaqaviy standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda ilg'or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish orqali inson kapitalini mustahkamlash.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va integratsion jarayonlarda faol ishtirok etish.

2-rasm. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari [1]

Mahsulotlarning muvofiqligini baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari, standartlashtirish bo'yicha milliy organ, akkreditatsiya organi, muvofiqlikni baholash organlari hamda sinov laboratoriyalari asosiy mas'ul tuzilmalar

hisoblanadi. Ushbu tizimning izchil faoliyati texnik jihatdan tartibga solish sohasida samarali boshqaruv va nazoratni ta'minlaydi. 3-rasmda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining mazkur sohadagi vakolatlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

normativ-huquqiy va tashkiliy asoslarni shakllantirish;

texnik reglamentlar bilan ishlash;

muvofiqlikni baholash tizimini boshqarish;

standartlashtirish va axborot bilan ta'minlash;

mahsulot xavfsizligi va nazorat;

qo'shimcha va boshqa vakolatlari.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi:

texnik reglamentlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va yangilashni tashkil etish;

standartlar va metodik hujjatlarni tasdiqlash va yuritish;

ro'yxatlar va reyestrlarni shakllantirish va yuritish;

normativ talablarning bajarilishini nazorat qilish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va uyg'unlashtirish;

axborot-ta'minot va metodik ko'mak.

3-rasm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi sohadagi asosiy vakolatli organ sifatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat organlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va institutsional asoslarni yaratish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, muvofiqlikni baholash va nazoratga oid funksiyalarni uyg'unlashtirish, ekspert komissiyalari faoliyatini tashkil etish hamda nazorat organlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash orqali yagona boshqaruv tizimini shakllantiradi.

Mahsulotlarning muvofiqligini baholash sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi asosiy vakolatli organlar hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash, ularni qabul qilish, o'zgartirish va bekor qilish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, u muvofiqlikni baholash

organlarining vakolatlarini belgilaydi, yuqori xavf darajasiga ega mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlaydi hamda xalqaro muvofiqlik natijalarining tan olinish tartibini belgilash orqali milliy mahsulotlarning eksport salohiyatini oshiradi. Bu chora-tadbirlar texnik tartibga solish hujjatlarining izchilligi va xalqaro integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi esa maxsus vakolatli davlat organi sifatida texnik reglamentlarni ishlab chiqish, takomillashtirish va bekor qilish bo'yicha takliflar kiritadi, ekspertizani tashkil etadi, muvofiqlik sertifikatlarini va deklaratsiyalar reyestrini yuritadi, yuqori xavfli mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi hamda xalqaro texnik reglament va standartlarni milliy tizimga joriy etishni muvofiqlashtiradi. Shu orqali u huquqiy asosning izchilligini ta'minlaydi va xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi.

1-jadval

ILAC (International Laboratory Accreditation Cooperation) va IAF (International Accreditation Forum) xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining prinsiplari, maqsadlari va vazifalari

Xususiyatlar	ILAC	IAF
Yo'nalish	Laboratoriyalar va inspeksiya organlarini akkreditatsiyalash	Sertifikatlash (tizimlar, mahsulotlar, xizmatlar, shaxslar) bo'yicha akkreditatsiya
Asosiy maqsadi	Sinov, kalibrlash, tibbiy va inspeksiya natijalarining xalqaro darajada tan olinishi	Sertifikatlash organlari faoliyatining global tan olinishi va savdo to'siqlarini kamaytirish
Prinsiplari	- Mustaqillik - Texnik kompetensiya - Shaffoflik - O'zaro tan olish	- Ishonchlilik - Hamkorlik - Xalqaro uyg'unlik - Savdoga yordam berish
Asosiy hujjatlar	ISO/IEC 17025, ISO 15189, ISO/IEC 17020, ISO/IEC 17011	ISO/IEC 17021, ISO/IEC 17065, ISO/IEC 17024, ISO/IEC 17011
Vazifalari	- Akkreditatsiya organlarini baholash (peer evaluation) - ILAC-MRA bitimini boshqarish - Mintaqaviy tashkilotlar bilan ishlash - Tan olingan laboratoriyalar reyestrini yuritish	- IAF-MLA bitimini boshqarish - Sertifikatlash organlarini tan olish - Akkreditatsiya me'yorlarini ishlab chiqish - Global savdoga xizmat qilish
Xalqaro bitimlar	ILAC-MRA (Mutual Recognition Arrangement)	IAF-MLA (Multilateral Recognition Arrangement)
Hamkor mintaqaviy tashkilotlar	EA (Yevropa), APAC (Osiyo-Tinch okeani), IAAC (Amerika), AFRAC (Afrika), ARAC (Arab maml.)	Xuddi shu tashkilotlar (ILAC bilan birgalikda)
Faoliyat sohasi	Mahsulotlar, sog'liqni saqlash, ekologiya, energiya, oziq-ovqat xavfsizligi	Sifat menejmenti, xavfsizlik tizimlari, xizmatlar sifati, shaxsiy kompetensiya

Moliyalashtirish Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi texnik jihatdan tartibga solish tizimining institutsional barqarorligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ILAC (International Laboratory Accreditation Cooperation) va IAF (International Accreditation Forum) kabi tashkilotlar akkreditatsiya jarayonlarini uyg'unlashtirib, muvofiqlik baholash natijalarining o'zaro tan olinishini ta'minlaydi. Bu esa texnik to'siqlarni kamaytirish, xalqaro savdoni rivojlantirish va mahsulot xavfsizligini kafolatlashga xizmat qiladi. Quyidagi 1-jadvalda ILAC va IAF xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining prinsiplari, maqsadlari va vazifalari keltirilgan.

ILAC (International Laboratory Accreditation Cooperation) va IAF (International Accreditation Forum) xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyalash orqali iste'molchilarning mahsulot va xizmatlar sifatiga bo'lgan ishonchini oshirish hamda baholash natijalarining xalqaro tan olinishini ta'minlashdir.

ILAC laboratoriyalar, kalibrlash va inspeksiya organlarini akkreditatsiyalash bilan shug'ullansa, IAF menejment tizimlari, mahsulotlar, xizmatlar va shaxsiy kompetensiyalarni sertifikatlovchi organlarning akkreditatsiyasini amalga oshiradi. Ularning faoliyati turli mamlakatlarda berilgan sertifikatlar va sinov natijalarining o'zaro tan olinishini kafolatlab, xalqaro savdo jarayonlarida texnik to'siqlarni kamaytiradi va mahsulot xavfsizligini ta'minlaydi.

Har ikki tashkilot o'z faoliyatida mustaqillik, ishonchlik, texnik kompetensiya, shaffoflik va xalqaro uyg'unlik tamoyillariga amal qiladi. ILAC laboratoriya va inspeksiya faoliyati uchun ISO/IEC 17025, ISO 15189 va ISO/IEC 17020 standartlariga tayanadi, IAF esa menejment tizimlari va mahsulot sertifikatlash bo'yicha ISO/IEC 17021, ISO/IEC 17065 va ISO/IEC 17024 standartlaridan foydalanadi.

Ushbu tashkilotlar ILAC-MRA (2000-yil) va IAF-MLA (1998-yil) o'zaro tan olish bitimlari orqali global darajada akkreditatsiya natijalarining tan olinishini kafolatlaydi. Mazkur bitimlar eksport qilinayotgan mahsulot va xizmatlar uchun qayta sinov yoki sertifikatlash zaruratini kamaytirib, xalqaro savdoni soddalashtirish va texnik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mahsulotlarni xalqaro bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish va milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mamlakat ILAC va IAF kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Bu esa milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro darajada tan olinishini, sinov va sertifikat natijalarining xorijiy bozorlar tomonidan qabul qilinishini ta'minlamoqda.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda mahsulotlar muvofiqligini baholashning iqtisodiy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash – xalqaro standartlar va talablarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish, mavjud me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablar asosida yangilash;
2. Baholash mexanizmlarini optimallashtirish – mahsulotlarni sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiya qilish jarayonlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirish;
3. Institutsional salohiyatni kuchaytirish – muvofiqlikni baholash organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, xodimlarning malakasini oshirish va akkreditatsiya tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish;

4. Raqamlashtirish va elektron tizimlarni joriy etish – mahsulot muvofiqligini baholash bo'yicha ariza topshirish, monitoring va nazorat jarayonlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish;

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bilan o'zaro tan olish kelishuvlarini rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan mahsulot muvofiqligini o'zaro tan olish bo'yicha bitimlar imzolash.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda muvofiqlikni baholash tizimining iqtisodiy-huquqiy asoslari yanada takomillashib, ichki bozorni xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon xalqaro savdo amaliyotida milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning global iqtisodiy makondagi integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 2023-yil 27-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41-son Farmoni. 2024-yil 27-fevral.
3. ISO 3534-2:2006 (2006) Statistics—Vocabulary and symbols— Part 2: Applied statistics. International Organization for Standardization, Geneva, Switzerland.
4. F.Cordeiro, M.H. Ramsey. Sampling in the context of conformity assessment. Accreditation and Quality Assurance (2023) 28. P. 181–182.
5. Rostron PD, Fearn T, Ramsey MH (2020) Confidence intervals for robust estimates of measurement uncertainty. Accreditation Qual Assurance J Qual Comparabil Reliabil Chem Measure 25:107– 119. <https://doi.org/10.1007/s00769-019-01417-4>.
6. Alex W, Bertil M (eds) (2021) EURACHEM/CITAC Guide "Use of uncertainty information in compliance assessment" 2nd Ed., available from <https://eurachem.org>
7. R.Houe, B.Grabot. Assessing the compliance of a product with an eco-label: From standards to constraints. International Journal of Production Economics, Volume 121, Issue 1, 2009. P. 21-38.
8. R.Liepiņa, I.Lapiņa, J.Mazais. Contemporary Issues of Quality Management: Relationship between Conformity Assessment and Quality Management. Procedia - Social and Behavioral Sciences, Vol. 110. 2014. P. 627-637.